

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK –
TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**«ENGIL SANOAT MAHSULOTLARI
TEXNOLOGIYASI» FAKULTETI**

«TABIYY TOIANI DASTLABKI ISHLASH» kafedrasi

«PAHTANI QURITISH VA NAMLASH» fanidan



REFERAT

6au-14 guruh talabasi:

Rejabboev S

Ilmiy rahbar:

Sharipov X

Namangan-2015

Mavzu:Paxtani tiplarga va navlarga ajratish

Reja

Kirish.

1. Paxta tolasining paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Paxta hosilini yig'ib-terib olish.
3. Paxta tiplari va navlari.
4. Qabul qilib olingan paxtaning saqlash qoidalari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar

Respublikamiz mustaqilligining 17 yilligida Prezidentimiz I.A.Karimov nutq soʻzlab, davlatimiz shu davrda erishgan yutuqlari toʻgʻrisida toʻxtalib, ayniqsa xalq boyligi boʻlgan paxtamizga hozirga kelib juda koʻp xorijiy davlatlardan qiziquvchilar-yaʼni xaridorlar koʻpayganini aytib oʻtdi. Demak oʻzbek paxtasi jaxonda yuqori oʻrinlarga chiqib boryapti. Bu esa ishlab chiqarilayotgan maxsulot sifatini yanada yaxshilash lozimligini, paxtani qayta ishlash texnika va texnologiyasini yangi zamonaviy uskunalar bilan jixozlashni taqazo etadi.

Xammamizga maʼlumki, ishlatilishi xajmi jixatidan paxtaga teng keladigan birorta qishloq xoʻjaligi maxsuloti xam yoʻq. Toʻqimachilik maxsulotlari bilan xalq talabini qondirishda paxta eng muhim va asosiy oʻrin tutadi.


Mamlakat iqtisodiyotida paxta oʻz ahamiyati bilan bugʻdoy, yoqilgʻi, metall va boshqa muhim xom ashyo turlari bilan bir qatorda turadi va paxtani qayta ishlash sanoatida asosiy xom ashyo boʻlib xizmat qiladi. Paxta tolasi va momiq esa toʻqimachilik, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlari korxonalari uchun yarim tayyor maxsulot xisoblanadi.

Paxtadan gazlama, sunʼiy shoyi, teri, sovun, lak, kunjara, em–xashak, ishlatiladigan qogʻoz, karton, oʻgʻit, oʻsimliklarni ximoya qilish moddalari, spirt, limon va olma kislotasi, oziq-ovqat uchun ishlatiladigan oqsil, atir-upa tayyorlash sanoati va boshqa shu kabi juda koʻp xar xil maxsulotlar olinadi.

Paxta gʻoʻzasi seae luss /malvali/ oilasiga mansub boʻlgan mustaqil Gossipium /Gossipium/ nomi bilan ataladigan botanik turdir. Shuningdek, kanop, gibiskue, xitoy atirguli, dukkakli oʻsimliklar, dagʻal kanop xam shu oilaga kiradi. Paxta gʻoʻzasining 38 turi mavjud boʻlib, ulardan toʻrtta turi madaniylashtirilgan:

- Gossipium hirzitem /Gossipium xirzitem,
- Gossipium barbadenze /Gossipium barbadenze,
- Gossipium herbaceum /Gossipium xerbatseum,
- Gossipium arboreum /Gossipium arboreum.

Respublikamizda ulardan ikki turi-Gossipium xirzitem (Meksika oʻrta tolali gʻoʻzasi) va Gossipium barbadenze (Peru ingichka tolali gʻoʻzasi,) ekiladi



Mamlakatimizda paxta xosilining 95% ga yaqini o'rta tolali paxta navlarini tashkil etadi. Bularga: Omad, Buxoro-6, Namangan-77, Oqdaryo-6, Oqqo'rqon-2, S-4727, S-6524, AN-Bayovut 2, Xorazm-127, Toshkent 6 kabi navlar kiradi. Bu navlar keyingi o'n yillikda olimlarimiz tomonidan yaratilgan bo'lib, ular tolasining uzunligi, mustaxkamligi, viltga chidamliligi va ayniqsa tez pisharligi bilan ajralib turadi.

Gossypium barbadense – uzun tolali paxta navi esa mamlakatimizning janubiy qismlarida ekiladi va 5-6 % ni tashkil etadi. Bu navlarning asosiy yutug'i tolasining uzunligi, ingichkaligi, mustaxkamligi va ipakka o'xshashligidir. Bunday tola eng nozik va mustaxkam texnikaviy gazlamalar to'qishda va yuqori sifatli buyumlar tayyorlashda ishlatiladi.

Uzun tolali paxta g'o'zasi turiga quyidagi navlar kiradi: 8386-I, 9732-I, 6249-V, 7318-V, Drujba-60, Denau-6, Termiz 31 va boshqalar.

G'o'za turlarining xar bir navi o'zining morfologik va xo'jalik belgilari bilan bir-biridan ajralib turadi. Bir nasldan tarqalgan va morfologik xamda xo'jalik

ko'rsatkichlari bir xil bo'lgan g'o'za o'simliklari turkumi g'o'za seleksion navi deb ataladi.

G'o'zaning morfologik belgilariga uning umumiy tashqi ko'rinishini (tupi, bargi, guli, ko'sagi va chigit) belgilovchi ko'rsatkichlari kiradi.

G'o'zaning xo'jalik belgilariga esa ko'sagining yirikligi, tolasining chiqishi, uzunligi, pishiqligi, ingichkaligi, o'simlikning kasalliklarga chidamliligi va vegetatsiya davrlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar kiradi.



Paxta tozalash korxonalarida paxtani qayta ishlash vaqtida qo'yidagi maxsulotlar olinadi: tola 32-34%, chigit 50-55%, momiq 4-6%, tarkibida kalta aralashgan chiqindi 0,5-1,5% va tarkibida kalta momiq aralashgan chiqindi 2,5-4,0 % tashkil etadi.

Sanoat va oziq-ovqat maxsulotlarni ishlab-chiqarishda chigitli paxta eng qimmatli xom ashyo turlaridan biri xisoblanib, u o'zining ahamiyati jihatidan

davlat iqtisodiyotida qalla, oltin, neft va boshqa muhim xom ashyo turlari bilan bir qatorda turadi. Paxta g'o'zasidan olinadigan maxsulotlari sxemasi 2-rasmda keltirilgan. Chigitli paxta – fermer xo'jaliklari tomonidan etishtirilib, paxta tozalash korxonalari uchun xom ashyo xisoblanadi.

Paxta tolasi - to'qimachilik, trikotaj, poyafzal, engil sanoat va boshqa tarmoqlar uchun xom ashyo xisoblanadi.

Paxta chigitidan- momiq (lint) xamda xalq iste'moli uchun tozalangan paxta yog'i, uning chigitidan glitserin va yog' kislotalari ishlab chiqariladi. Bulardan esa o'z navbatida sovun, kir yuvish kukunlari, linolium, izolyatsiya lentalari, kinoplenka, plyonka, suv o'tkazmaydigan mato, sun'iy teri va sun'iy kauchuk olinadi.

Momiqni maxsus kimyoviy usulda qayta ishlanib, sellyuloza va undan sun'iy ipak olinadi.

Poyalardan esa turli xil qog'oz va boshqa maxsulotlar, g'o'za barglaridan - organik kislotalar ishlab chiqariladi.

Gidroliz sanoatida shulxadan foydalanib, 1 tonna shulxadan 150 kg fufurola olish mumkin, bundan esa smola, plastmassa, sintetik tola, dori preparatlari uchun xom ashyo bo'lib xizmat qiladi.

G'o'zaning rivojlanishi 5 davrga bo'linadi:

1. Kurtak yozishi 8-10 kun;
 2. Chin barglar xosil bo'lishi 10 kun;
 2. Shonalashi 45-50 kun;
 4. Gullashi 25-35 kun;
 5. Ko'sakning ochilishi 45-60 kun.
- O'zDst 615-94 «Paxta. Texnik shartlar» ga binoan paxta tolasining fizik va mexanik xossalari qarang, paxta tolasini 9 tipga bo'ladi va chigitli paxtani 3 ta sinfga ajratadi.
 - O'zDst 643-95 tayyorlov punktlarida paxtani qabul qilib olish va to'dalarga jamlashda, qaramlarda saqlanayotgan paxta sifatini baqolashda

uni paxta punktidan jo'natishda va PTZda qabul qilishda paxtadan namuna olish qoidalarini muvofiqlashtiradi.

- O'zDst 592-92 paxtani iflosligini aniqlashni muvofiqlashtiradi.
- O'zDst 593-92 paxta tolasining sifat xususiyatlarini aniqlashning tezkor usullarini muvofiqlashtiradi.
- O'zDst 644-95 Respublika standartida YCX-1 va BXC-1 qurilmalarida chigitli paxta namligini aniqlash usullari bayon etilgan.
- O'zDst 604:2001 to'qimachilik sanoati korxonalari, shu jumladan, eksport uchun xom-ashyo sifatida etkazib beriladigan paxta tolasini aniqlashga mo'ljallangan.

Tolaning paydo bo'lishi va rivojlanishi.

Paxta tolasi chigit qobig'idagi tashqi epidermisning bo'yiga cho'zilgan ayrim xo'jayrasidan iborat bo'lib, har bir tola bitta ho'jayra hisoblanadi.

Shuningdek, chigit tukining har bir qobig'idagi tashqi epidermisning bitta xo'jayrasidan vujudga keladi. Zero, bu ham bitta ho'jayradir, lekin u bo'yiga unchalik cho'zilib ketmaydi.

Asosiy tolalarning paydo bo'lishi g'o'za gulga kirgan kundan boshlab, ba'zi navlarida (*Gossypium barbadense*) va shular bilan chatishtirilgan ba'zi duragaylarda gullash oldidan boshlanadi. Gul ochiladigan kundan to tugunchadagi urug'kurtak urug'lanishigacha urug'kurtakning tashqi epidermisidagi ba'zi ho'jayralarning tashqi devorchasi bo'rtib chiqa boshlaydi, natijada epidermisning boshqa ho'jayralaridan tashqariga chiqib turadigan o'siq paydo bo'ladi. Urug'kurtak urug'langach, haligi bo'rtib chiqqan ho'jayralar bo'yicha tez cho'zila boshlaydi, diametri ham sal kattalashadi, so'ngra devorlari qalinlashadi va shu tariqa ho'jayra tolaga aylanadi. Urug'kurtakdagi tashqi epidermisning tolaga aylanadigan ho'jayrasini aktiv ho'jayra deyiladi.

Epidermisning aktiv ho'jayralaridan o'siq paydo bo'la boshlashi bilan birga chigit rivojlanishining dastlabki kunlarida epidermis ho'jayralari bo'linadi, ya'ni ho'jayralar ko'payadi. Mana shu bo'linish natijasida paydo bo'lgan hujayraning ba'zisi aktiv ho'jayralarga aylanib, tola hosil qiladi. Natijada, urug'langan urug'kurtak sirtida tolaga aylanadigan o'siqlarning hammasi bir vaqtda paydo bo'lmaydi. Bundan tashqari, bu o'siqlar urug'kurtak sirtida bir tekisda joylashmaydi va ularning rivojlanish tezligi ham har xil bo'ladi.

M: chigitning xalaza qismida tolaga aylanadigan o'siq gullashning birinchi kunida (*G. barbadense*), ayrim g'o'za navlarida gullash oldidan paydo bo'la boshlaydi. Bu yerda o'siqlar birmuncha qalinroq joylashadi. Chigitning mikropila tomonida tolaga aylanadigan o'siqlar keyinroq shakllanib, siyrakroq joylashadi va sekinroq o'sadi. Epidermisning ayrim ho'jayralari sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida g'o'za gullaganda 6-10 kun o'tgach, lalmikor dehqonchilik sharoitida

esa 4 kun o'tgach bo'rtib chiqib, bo'yiga o'sa boshlaydi. Lekin juda sust o'sadi, so'ngra asosan linter paxta deb aytiladigan chigit tukiga aylanadi.

Tola rivojlanishi ikki bosqichga bo'linadi, har bir bosqich sharoitida 25-30 kun davom etadi. Birinchi bosqichda tola asosan bo'yiga o'sib, g'o'zaning tegishli tur va naviga xos kattalikka yetib oladi. Asosiy tola juda tez o'sib 15-16 kun ichida haqiqiy uzunligining taxminiy yarmiga yetadi, 25-30 kun deganda uning bo'yiga o'sishi deyarli to'xtaydi.

Tola paydo bo'lgan kundan boshlab, to 12-15 kungacha uning diametri kattalashaveradi. Tolaning diametri boshdan oyoq bir xil bo'lmaydi. Uning asosi yoki o'rtasining diametri birmuncha kattaroq Tolaning yuqori qismining diametri asta sekin qisqarib boradi. Shu sababli uning uch tomoni sezilarli darajada ingichka, lekin uchi to'mtoq bo'ladi. Tola bo'yiga cho'zilayotganda uning devorchalari hamma vaqt yupqaligicha qolaveradi va ular moy-mum modda-kutin aralashgan kleychatkadan tashkil topadi, bu moy-mum moddalarining miqdori g'o'za formalariga qarab keskin darajada o'zgaradi. Tolaning mana shu yupqa devorchasi kutikula deb ataladi.

I va II nav paxta buntlangandan 12-15 kun o'tgach uzunasiga bir va ko'ndalangiga bir tonnel , III à IV nav paxta uchun uzunasiga bir va ko'ndalangiga har 5 m ga bir tonnel ochiladi. Tonnellarning balandligi 1.5 m, eni 0.6 m bo'lishi kerak. Yopiq omborlarda saqlanadigan paxta uchun har bir bo'lim o'rtasida bitta quduq kavlanadi yoki orasi ochib qo'yiladi.

Saqlanayotganda paxta qizib ketmasligi uchun I va II navlar har 5 kunda laborantlar tekshirib turadi. Temperaturasi maxsus termoshupda o'lchanadi. Bunda termoshup buntning 8 nuqtasida 3 m chuqurlikka, yopiq ombor va shiyponlarda esa 4 nuqtada paxta g'aramligining yarmigacha kiritilib o'lchanadi. Bunda temperatura sentyabr-oktyabr oylarida 300 gacha bo'lsa normal hisoblanadi. Keyingi o'lchovda 2-30 ortiq bo'lsa sovutish chorasini ko'rish kerak. 3.3-rasmda ochiq usulda paxtani saqlash uchun g'aram ko'rsatilgan.